SIRDARYO VILOYATI MIRZAOBOD TUMANI HOKIMI
Q A R O R I

2023 - yil 1 - may 293-9-125-Q/23 Mirzaobod tuman hokimligi

Tuman hududidagi umumta’lim maktablar yaqinidan o‘tuvchi avtomobil yo‘llarga tezlikni cheklovchi yo‘l belgilarini o‘rnatishga ruxsat berish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining 2013-yil 10-apreldagi “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi O‘RQ-348-sonli (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2013-y., 15-son, 197-modda; 2015-y., 52-son 645-modda) qarori ijrosini ta’minlash, shuningdek aholiga xizmat ko‘rsatuvchi tashkilotlar oldida transport vositalarining to‘xtab turish soni ortib borayotganligini inobatga olib, Mirzaobod tumani hududidagi umumta’lim maktablari yaqinida avtomobillarning harakatini tartibga solish maqsadida, tuman Ichki ishlar bo‘limining 2023-yil
22-fevraldagi 34/569-sonli axborotnomasiga, Sirdaryo ko‘priklardan foydalanish unitar korxonasining 2023-yil 13-martdagi 95-sonli, tuman yo‘llardan foydalanish unitar korxonasining 2023-yil 1-martdagi 49-sonli xatlariga hamda “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 25-moddalariga asosan **qaror qilaman:**

1. Tuman Ichki ishlar bo‘limining 2023-yil 22-fevraldagi 34/569-sonli axborotnomasi Sirdaryo ko‘priklardan foydalanish unitar korxonasining 2023-yil 13-martdagi 95-sonli hamda tuman yo‘llardan foydalanish unitar korxonasining 2023-yil 1-martdagi 49-sonli xatlari inobatga olinsin.

2. Mirzaobod tumani hududidagi umumta’lim maktablari yaqinidan o‘tuvchi avtomobil yo‘llariga tezlikni cheklovchi 3,24 (50-30) yo‘l belgilari o‘rnatishga ruxsat berilsin.

3. Sirdaryo ko‘priklardan foydalanish unitar korxonasi (F.Akromov), tuman yo‘llardan foydalanish unitar korxonasi (D.Vaydullayev) hamda tuman hokimligi Obodonlashtirish boshqarmasi (B.Sariboyev)lar o‘z tashkilotlari taasarrufidagi avtomobil yo‘llarga 3,24 (50-30) yo‘l belgilari o‘rnatish choralarini ko‘rsin.

4. Tuman Yo‘l xarakati havfsizligi bo‘limi S.Mirzayevga mazkur avtomobil yo‘lida harakat xavfsizligini ta’minlash va yo‘l transport hodisalarini oldini olish vazifasi yuklatilsin.

5. Tuman hokimligi matbuot xizmati (O.Nomozov) mazkur qarorni tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilishini tashkillashtirsin.

6. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimi o‘rinbosari v.v.b B.Sariboyev zimmasiga yuklatilsin.

7. Qaror rasman e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Tuman hokimi **J.Yariyev**